

O'ZBEK TILIDA DISLEKSIYA VA DISGRAFIYANING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Ko'chiyeva Shabnam Isomiddin qizi

Termiz davlat universiteti

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22824790>

Qabul qilindi: 12-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 17-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 18-sentabr 2026-yil

Annotatsiya:

Ushbu tezisda o'qish va yozish faoliyati buzilishi bilan bog'liq bo'lgan disleksiya va disgrafiyaning lingvistik xususiyatlari yoritiladi. Disleksiya o'qish jarayonida harflarni, tovushlarni va ularning o'zaro munosabatini to'g'ri anglash hamda avtomatlashtirishdagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo'lsa, disgrafiya yozma nutqni shakllantirish jarayonidagi barqaror qiyinchiliklar orqali ko'zga tashlanadi. Mazkur buzilishlarni lingvistik jihatdan o'rganish fonologik, morfologik, leksik va sintaktik birliklarning o'zlashtirilishi hamda qo'llanishdagi o'ziga xosliklarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, o'zbek tilining agglutinativ xususiyati, qo'shimchalarning ketma-ket qo'shilishi, fonetik va morfologik tizimning o'ziga xosligi disleksiya va disgrafiya holatlarini tadqiq etishda muhim omil hisoblanadi. Tezisdagi ushbu buzilishlarning namoyon bo'lish shakllari hamda ularni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etishning ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar:

disleksiya, disgrafiya, o'qish faoliyati, yozma nutq, lingvistika, neyrolingvistika, fonologiya, morfologiya, psixolingvistika.

O'qish va yozish insonning ta'lim olishi, axborotni qabul qilishi va uni yozma shaklda ifodalashida muhim bo'lgan murakkab nutqiy faoliyat turlaridir. Ushbu jarayonlarning shakllanishida fonologik, morfologik, leksik va sintaktik bilimlar bilan bir qatorda xotira, diqqat, idrok va boshqa kognitiv jarayonlar ham ishtirok etadi. Shu sababli o'qish va yozishdagi buzilishlarni faqat pedagogik muammo sifatida emas, balki lingvistik, psixolingvistik va neyrolingvistik jihatdan ham o'rganish zarur.

Disleksiyaning lingvistik tabiatini tushunishda, avvalo, fonologik jarayonlarga e'tibor qaratish lozim. Disleksiyaning fonologik qayta ishlash bilan bog'liqligi va unga til tizimidagi, xususan, fonologik qayta ishlash bilan bog'liq qiyinchilik sifatida qaralishi Shaywitz va hammualliflari tadqiqotlarida ko'rsatilgan ¹. O'qish jarayonida fonologik axborotni qayta ishlashdagi qiyinchiliklar so'zlarni dekodlash va o'qish ravonligiga ta'sir qilishi mumkin ². Shuningdek, fonologik axborotni ajratish va qayta ishlashdagi qiyinchiliklar natijasida tovushlarni farqlash, so'zning tovush tarkibini aniqlash yoki harf-tovush munosabatini tezda anglashda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Disleksiyada kuzatiladigan xatolar faqat alohida tovush yoki harflar bilan chegaralanibgina qolmaydi, balki so'zning tarkibiy tuzilishi, bo'g'inlar, qo'shimchalar orqali

¹ Shaywitz S. E., Shaywitz B. A. Dyslexia (Specific Reading Disability). *Biological Psychiatry*. 2005. Vol. 57, No.11. DOI: 10.1016/j.biopsych.2005.01.043.

² Shaywitz S. E., Mody M., Shaywitz B. A. Neural Mechanisms in Dyslexia. *Current Directions in Psychological Science*. 2006.

ifodalanadi. Masalan, *kitob-lar-imiz-dan* so'zida bir nechta grammatik ma'no ketma-ket qo'shimchalar orqali yuzaga keladi. Bunday morfologik tuzilmani tez va aniq qayta ishlash o'qish hamda yozish jarayonining muhim jihatlaridan biridir.

Disgrafiya harflarni shakllantirish, imlo, so'zlar orasidagi masofa, yozish tezligi va yozma nutqni tashkil etish bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin³. Unda yozma nutqni shakllantirish bilan bog'liq lingvistik jarayonlarning buzilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yozish jarayonida o'quvchi eshitilgan yoki fikr sifatida shakllangan birlikni grafik belgilar orqali ifodalashi kerak. Bu jarayon tovushlarni ajratish, ularning ketma-ketligini saqlash, kerakli harflarni tanlash va so'zning yozma shaklini hosil qilishni talab etadi. Shu sababdan ham disgrafiya ega bolalarning yozuvida harflarni almashtirish, tushirib qoldirish, ortiqcha harf qo'llash yoki so'z tarkibidagi birliklar o'rnini o'zgartirish kabi xatolarni uchrashi mumkin. Va ushbu xato savodsizlik sababli emas. Xatolarning takrorlanishi, muayyan lingvistik birliklarda muntazam namoyon bo'lishi va bolaning bolaning boshqa faoliyatlaridagi natijalari bilan bog'liqligi ularning kelib chiqish mexanizmini aniqlashda muhimdir.

O'zbek tilidagi disleksiya va disgrafiya tadqiq etishda fonetik-fonologik, morfologik, leksik va sintaktik sathlarnikompleks tahlil qilish lozim. Masalan, fonologik sathda tovushlarni farqlashva fonemik tuzilmani anglash, morfologik sathda qo'shimchalarni ajratish va ularning vazifasini tushunish, leksik sathda so'zlarni tanish va ma'nosini faollashtirish, sintaktik sathda esa so'zlarning gap tarkibidagi munosabatlarini qayta ishlash jarayonlari o'rganilishi mumkin. Shuningdek, disleksiya va disgrafiya o'rganishda neyrolingvistik yondashuv ham muhim. Chunki o'qish va yozish faoliyati miyada turli kognitiv va til jarayonlarining o'zaro hamkorligi asosida amalga oshadi. Lingvistik xatolarning xarakterini aniqlash orqali qaysi til jarayonlari ko'proq qiyinchilik tug'dirayotganini aniqlash mumkin. Bu esa kelgusida diagnostika va korreksion ishlarni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

O'zbek tilida disleksiya va disgrafiyaning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etishda fonologik va morfologik birliklar muhim ahamiyatga ega. Fonematik jihatdan yaqin tovushlarni farqlashdagi qiyinchiliklar *b-p (kitob-kitop, odob-odop)*, *d-t (ijod-ijot)*, *g-k (kurak-kurag)* kabi juftliklar orqali tahlil qilinishi mumkin. Shuningdek, o'zbek tilinign agglutinatativ xususiyati sababli *kitoblarimizdan, o'quvchilarimizni, maktablaringizga* kabi ko'p morfemali so'zlarda qo'shimchalarni tushirib qoldirish yoki almashtirish kuzatilishi mumkin. O'zbek tilining lotin yozuviga xos *o'* va *g'* birliklari ham alohida ahamiyatga ega: *o'qish-oqish, g'oz-goz, tog'-tog* kabi holatlar grafik farqlash jarayonini tahlil qilish imkonini beradi. Shu bois o'zbek tilining fonetik, grafik va morfologik xususiyatlari disleksiya va disgrafiya milliy til materialida o'rganish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, disleksiya va disgrafiya murakkab, ko'p omilli hodisalar bo'ib, ularni faqat pedagogik yoki psixologik nuqtayi nazardan emas, balki lingvistik va neyrolingvistik jihatdan ham tadqiq etish zarur. O'zbek tilida mazkur buzilishlarni o'rganishda fonologik, leksik va sintaktik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. O'zbek tilidagi materiallar asosida yuqorida keltirilgan buzilishlarning lingvistik belgilarini aniqlash, ularni tizimlashtirish va diagnostik hamda korreksion yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biridir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Shaywitz S.E., Shaywitz B.A. Dyslexia (Specific Reading Disability). Biological Psychiatry. 2005. Vol.57, No.11. DOI:10.1016/j.biopsych.2005.01.043.
2. Shaywitz S. E., Mody M., Shaywitz B. A. Neural Mechanisms in Dyslexia. Current Directions in Psychological Science. 2006.
3. Shaywitz S. E., Morris R., Shaywitz B. A. The Education of Dyslexic Children from Childhood to Young Adulthood. Annual Review of Psychology. 2008. Vol. 59, pp. 451–475.

³ Chung P. J., Patel D. R., Nizami I. Disorder of Written Expression and Dysgraphia: Definition, Diagnosis, and Management. Translational Pediatrics. 2020. Vol. 9, Suppl. 1, pp. S46–S54. DOI: 10.21037/tp.2019.11.01.

4. Chung P. J., Patel D. R., Nizami I. Disorder of Written Expression and Dysgraphia: Definition, Diagnosis, and Management. *Translational Pediatrics*. 2020. Vol. 9, Suppl. 1, pp. S46–S54. DOI: 10.21037/tp.2019.11.01.
5. Schulte-Körne, G., Warnke, A., and Remschmidt, H. (2006). Zur Genetik der LeseRechtschreibschwäche. *Z. Kinder Jugendpsychiatr. Psychother.* 34, 435–444. doi: 0.1024/1422-4917.34.6.435